

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori

_____ D.B.Axmadjanov

2024-yil «__» _____

MALAKAVIY AMALIYOT

DASTURI

2-kurs

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60110500 – Boshlang‘ich ta’lim

Chirchiq – 2024

Malakaviy amaliyot dasturi Chirchiq davlat pedagogika universiteti kengashining 2024-yil “___” _____dagi ___-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

- D.Ibragimova - CHDPU “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrası o‘qituvchisi
S.Matkarimova - CHDPU “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrası o‘qituvchisi
I.Madraximova - CHDPU “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrası o‘qituvchisi
G.Xaydarova - CHDPU “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrası o‘qituvchisi
O.Mirzoraximov - CHDPU “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrası o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

- Q.A.Mambetaliye - CHDPU “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti”
v kafedrası dotsenti v.b., f.f.d.(PhD)
Sh.Avazov - Nizomiy nomidagi TDPU professori, pedagogika fanlari
nomzodi.

Malakaviy amaliyot dasturi Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasining 2024-yil “___” _____dagi _____-sonli majlisida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlashga tavsiya qilindi.

Kafedra mudiri:

A.Y.Kuchkinov

Malakaviy amaliyot dasturi Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti kengashining 2024-yil “___” _____dagi ___-sonli majlisida muhokamadan o‘tkazilgan.

Fakultet dekani:

I.U.Tadjibayev

KIRISH

Malakaviy amaliyotining maqsad va vazifalari

Malakaviy amaliyotining asosiy maqsadi bo'lg'usi o'qituvchilarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv-tarbiyaviy ishlarga kasbiy pedagogik va psixologik tayyorlash, ijobiy fikrlash, kasbiy mahorat va qobiliyatlarni rivojlantirishdan iborat.

Malakaviy amaliyotining vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarda kasbiy ishonch, barqaror pedagogik qarashlarni shakllantirish;
- talabalarning pedagogik-psixologik fanlar hamda maxsus fanlar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash;
- bo'lajak o'qituvchilarni amaliy ko'nikma va malakalar bilan, zaruriy holatlarda umumiy psixologik-pedagogik qonuniyatlarni qo'llash malakalari bilan ta'minlash;
- talabalarni maktabdagi o'quv-tarbiyaviy ishlarning zamonaviy ahvoli va dars jarayonida pedagogik hamda innovatsion texnologiyalar bilan tanishtirish;
- o'qituvchining muhim kasbiy va shaxsiy xislatlarini rivojlantirish;
- talabalarda pedagogik kasb va mehnatga hurmat, muhabbat uyg'otish;
- talabalarning pedagogik-psixologik faoliyatda bevosita qatnashishlariga erishish;
- talabalarni maktab o'qituvchilarining pedagogik kasbiga yo'naltirish va tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga o'rgatish;
- pedagogik faoliyatning sinfdan va maktabdan tashqari ishlarini joriy va istiqbolli rejalashtirishga o'rgatish.

Amaliyotchi talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga

qo'yiladigan talablar:

- bo'lajak o'qituvchilarda o'z kasbiga oid kasbiy sifatlar: malaka, ko'nikma va mahoratni shakllantirish, pedagogik bilimlarni egallash uchun ehtiyoj tug'dirish;
- o'quv mashg'ulotlarining dars ishlanmalari va mavzuiy rejalarini ishlab chiqish, amaliyot davomida sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish;
- o'quvchilar tarbiyasiga kompleks yondashgan holda turli xil sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni olib borish;
- o'qituvchilar, o'quvchilar va ularning ota-onalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni pedagogik maqsadga muvofiq ravishda o'rganish;
- maktab hujjatlarini olib borish (sinf qaydnomasi), o'quvchilar kundaliklari (E-maktab orqali), daftarlarini tekshirish, ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar tayyorlash;
- ota-onalar bilan yakkama-yakka ish olib borish, ota-onalar faollari bilan ishlash, ota-onalar yig'ilishlarida so'zga chiqish (oilaviy tarbiyaning dolzarb muammolari haqida);
- kurs loyihasini tayyorlashda foydalanish uchun materiallar yig'ish maqsadida pedagogik tajriba yoki ijodiy-tekshiruv ishlarini olib borish;
- amaliyot mobaynida o'qituvchilar va shaxsiy tajribalarni umumlashtirish, tahlil qilish va hokazo.

- Malakaviy amaliyotining o'quv fanlari bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi.

Oliy ta'lim muassasasi tarkibida yo'lga qo'yiladigan malakaviy amaliyot boshlang'ich sinf o'quv fanlaridan: "Ona tili", "O'qish savodxonligi", "Matematika", "Tabiiy fanlar", "Musika", "Tasviriy sa'nat", "Tarbiya", shuningdek, "Pedagogika", "Psixologiya" kabi pedagogik-psixologik toifadagi fanlardan amaliyot davrida foydalanishni nazarda tutadi.

Malakaviy amaliyot davrida bajariladigan ishlarni rejalashtirish.

Umumta'lim maktablarida o'tkaziladigan malakaviy amaliyotning muvoffaqiyatli o'tishi, unda amalga oshiriladigan ishlarni to'g'ri rejalashtirishga ham uzviy bog'liqdir.

Fanlar bo'yicha guruh metodistlari barcha tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish yakunida kafedra o'qituvchilari bilan hamkorlikda o'z maktablarida o'tkaziladigan malakaviy amaliyotning yagona ish rejasini tuzadi.

Bunday rejaning afzalligi shundaki, u amaliyotning (metodistlar) amaliyotchilar, maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari, maktab rahbar xodimlari va fan o'qituvchilari rahbarligida bajariladigan ishlarning bir-biriga parallel kelishi hamda takrorlanib qolishi kabi holatlarni bartaraf qiladi. Rejada mutxassislik fanlarini (masalan: ona tili, o'qish, matematika, tabiatshunoslik) o'qitish va tarbiya sohasida amalga oshiriladigan barcha ishlar uyg'unlashtirilgan bo'ladi.

Reja bo'yicha malakaviy amaliyotining boshlanishi va undan keyingi davrda amalga oshirish ishlari mo'ljallangan. Uning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Malakaviy amaliyotining boshlanishiga bag'ishlangan anjuman.
2. Amaliyotchi talabalarni maktab va uning ma'muriyati, direktor, mutaxassislik fan o'qituvchilari, sinf rahbarlari va boshqalarning suhbatini uyushtirish.
3. Amaliyotchilarning amaliyot davomida o'zlari bajaradigan ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishlari.
4. Amaliyotchilarning mutaxassislik fanlaridan o'qituvchi o'tadigan darslarga kirishlari, kuzatishlari, tahlil qilishlari va ularning muhokamasi.
5. Amaliyotchilarning o'qituvchilar faoliyatini o'rganish maqsadida o'z sinflaridagi boshqa darslarga kirishlari.
6. Amaliyotchilarning ayrim sinflarda namuna tarzidagi tarbiyaviy soat mashg'ulotlarini, mutaxassislik fanlari bo'yicha to'garak yig'ilishlarini va boshqa tadbirlarni kuzatishlari va ularning muhokamasi.
7. Malakaviy amaliyot rahbarlarining amaliyotchilar uchun uslubiy maslahatlar berish, amaliyotning borishi va yakuniga bag'ishlangan yig'ilishlar o'tkazishlari, amaliyotchilarning faoliyatini nazorat qilib borishlari va boshqalar.

2-kurs talabalari uchun maktablarda o'tkaziladigan amaliyot rejasi

№	Mashg'ulot nomi	Mashg'ulot turi	Mas'ul rahbar	Izoh
1	Malakaviy amaliyotining boshlanishiga bag'ishlangan anjuman.	Amaliy	Amaliyot rahbari	

2	Amaliyotchilarni maktab, maktab ma'muriyati va o'qituvchilar jamoasi bilan tanishtirish.	Amaliy	Amaliyot rahbari	
3	Malakaviy amaliyot davomida yuritiladigan hujjatlar to'g'risida amaliyotchilar bilan suhbat o'tkazish.	Amaliy	Amaliyot rahbari	
4	Amaliyotchilar uchun sinf rahbarlarining suhbatini tashkil etish.	Amaliy	Amaliyot rahbari	
5	Amaliyotchilarning o'z sinflari va maktab bo'yicha amalga oshiradigan tarbiyaviy ishlari rejasini belgilab berish.	Amaliy	Amaliyot rahbari	
6	Amaliyotchi talabalarining dars tahliliga kirishi.	Amaliy	Amaliyot rahbari	
7	Amaliyotchilarning o'z sinflarida o'quvchilarni o'rganish maqsadida boshqa darslarga kirishlari.	Amaliy	Amaliyot rahbari	
8	Amaliyotchi talabalarining malakaviy amaliyotga doir hujjatlarni tahlil qilishi.	Amaliy	Amaliyot rahbari	
9	Amaliyotchilar uchun maktab yetakchisining suhbatini va birgalikda ishlashini tashkil etish.	Amaliy	Amaliyot rahbari	
10	1-2 sinflar darslariga tahlilga kiruvchi amaliyotchilar uchun metodist maslahati.	Amaliy	Amaliyot rahbari	
11	3-4 sinflar darslariga tahlilga kiruvchi amaliyotchilar uchun metodist maslahati.	Amaliy	Amaliyot rahbari	
12	Fanlardan darslarni tahlil qiluvchi amaliyotchilarga metodist maslahati.	Amaliy	Amaliyot rahbari	
13	Malakaviy amaliyotga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazish.	Amaliy	Amaliyot rahbari	
14	Amaliyotchi talabalarni malakaviy amaliyotga doir hujjatlarni topshirishga tayyorlash va amaliyotga oid hujjatlarni qabul qilib olish.	Amaliy	Amaliyot rahbari	
15	Malakaviy amaliyotning yakuniga bag'ishlangan anjuman o'tkazish va amaliyotni yakunlash.	Amaliy	Amaliyot rahbari	

Talabalar pedagogik faoliyatini nazorat qilish va baholash.

Baholashda nima nazorat qilinadi va qanday baholanadi?

Nazorat ob'ektlari quyidagilardan iborat:

1. O'z-o'zini rivojlantirish individual dasturining ishlanmasi.
2. Topshiriqlarning bajarilishi.
3. Hisobot hujjatlarini tuzish.

O‘z-o‘zini rivojlantirish individual dasturi amaliyotning boshida tuzilishi lozim. Har bir talabaning tayyorgarlik darajasini aniqlash, individual maqsadlarni qo‘yish, topshiriqlarni tanlash, umuman pedagogik faoliyat mazmunini tuzish kafedra o‘qituvchilari rahbarligida amalga oshiriladi. Ularning individual dasturi yaxlit yondashuv nuqtai nazaridan baholanadi, ya’ni pedagogik faoliyatning barcha jihatlarini hisobga olinganligi, pedagogik malakaning shakllanishi, psixik va shaxsiy xususiyatlarning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi topshiriqlar mavjudligini aniqlaydi.

Amaliyot davrida talabalarga maslahatlar berish faqat darslar, darsdan tashqari tadbirlarni ishlab chiqishga emas, balki talabalarning o‘z qobiliyatlarini amalga oshirishga ko‘maklashishga qaratilgan.

Talabalar bajargan topshiriqlar tahlili ularning malakasi, shaxsiy va psixik xususiyatlarini baholashga qaratiladi, ya’ni talaba tashkilotchilik malakasini qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshira olganligi, pedagogik taktikani ko‘rsata olganligi, hamdardlik bildirish, kayfiyatni ko‘tarish, o‘zidagi asabiylashishni yengish va hokazo kabi xususiyatlarni namoyish eta olganligi baholanadi. Har bir topshiriqning bajarilishi tanlangan darajaviy mezonlar yordamida baholanadi, u yoki bu guruhning malakalari qay darajada namoyish etilishi aniqlanadi.

Amaliyotchi talabalarning amaliyot davridagi ishlarini baholash mezonlari.

Malakaviy amaliyot davrida talabalarning faoliyatini nazorat qilish va baholash 100 ballik reyting asosida amalga oshiriladi.

O‘quv rejasidagi malakaviy amaliyoti xususiyatidan kelib chiqib, ballar quyidagicha taqsimlanadi.

№	Bajariladigan ish mazmuni	Bajarish muddati	Reyting ballari
1	Malakaviy amaliyotiga bag‘ishlangan yig‘ilishda qatnashish	Amaliyot davomida	10
2	Maktab ma‘muriyati bilan tanishish	Amaliyot davomida	10
3	Kalendar tematik rejani o‘rganish	Amaliyot davomida	15
4	Darslarni kuzatish va tahlil qilish. Faol va nafaol o‘quvchiga psixologik tavsif	Amaliyot davomida	20
5	Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasini o‘rganish	Amaliyot davomida	10
6	Amaliyotchi kundaligini yuritish	Amaliyot davomida	15
7	Malakaviy amaliyoti bo‘yicha hisobot tayyorlash, tavsifnoma.	Amaliyot davomida	20
	Jami:		100 ball

Izoh: Malakaviy amaliyoti o‘quv jarayonining asosiy qismlaridan biri bo‘lib, talabalarni maktablarda o‘quv-tarbiya ishlarining tashkil etilishi va borishi bilan tanishtirish hamda nazariy tayyorgarligini boyitish hamda olgan bilimlarini chuqurlashtirish, mustahkamlash, amaliy topshiriqlarni bajarishda o‘rganilayotgan fanning nazariy jihatlaridan foydalanish uchun sharoitlar yaratadi. Malakaviy

amaliyot davrida, asosan, kasbiy malaka ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni kechadi.

Malakaviy amaliyot bo'lajak o'qituvchining o'z hayotini kelajak avlodning ta'lim-tarbiyasi kabi jiddiy, mas'uliyatli ishga bag'ishlashga, talabalarning mehnatga shayligini amalga oshirishga tayyorligini tekshiruvchi birinchi jiddiy sinovdir.

Amaliyotchi talaba quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim:

- amaliyot davrida talaba: ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini, dars jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishni yo'lga qo'yishni;

- amaliyot davomida maktablarning ichki tartib qoidalariga bo'ysunishi va amaliyot dasturi asosida topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi lozim;

Talaba topshirilgan ishni o'z vaqtida bajarishi va malakaviy amaliyotining boshlanishidan tizimli ravishda olib borish, amaliyot tugagandan so'ng uch kun muddat ichida amaliyot yuzasidan yozma hisobot topshirishi talab etiladi.

Malakaviy amaliyot bo'yicha baholash mezonlari

Malakaviy amaliyot nazorati og'zaki va yozma hisobot shaklida olib boriladi.

5 – “A'lo” baho (90-100 ball) - talaba malakaviy amaliyot davrida olgan nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lay olsa; material bo'yicha bilim va ko'nikmaga ega bo'lib, hayotga tadbiq eta olsa; amaliyotda faol ishtirok etib, unga oid hujjatlarni to'liq tadbiq eta olsa;

4 – “Yaxshi” baho (70-89,9 ball) - talaba malakaviy amaliyot davrida kerakli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib, faol ishtirok etsa, ammo kichik xatoliklarga yo'l qo'ysa;

3 – “Qoniqarli” baho (60-69,9 ball) – amaliyotchi talaba nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarga yetarlicha ega bo'lmay, xatoliklarga yo'l qo'ysa;

2 – “Qoniqarsiz” baho (59,9 dan kam ball) – talaba malakaviy amaliyot davrida amaliy bilim va ko'nikmaga ega bo'lmasa, amaliyotga oid hujjatlarni taqdim eta olmasa va jiddiy xatoliklarga yo'l qo'ysa.

MALAKAVIY AMALIYOT YIG'MA JILDIGA QUYIDAGI HUJJATLAR BO'LISHI ZARUR:

1. Amaliyotchi talabaning shaxsiy ish rejasi.
2. Kundalik daftar.
3. Ma'naviy-tarbiyaviy ish reja.
4. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining hujjatlarini o'rganish.
5. Dars tahlili daftari.
6. Faol va nafaol o'quvchiga psixologik tavsif.
7. To'garak ish rejasi.
8. Maktab ma'muriyati tomonidan talabaga berilgan tavsifnoma.
9. Amaliyot yuzasidan yozilgan hisobot.

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. Xasanova B. Pedagogik amaliyot. Toshkent. TDPU, 2002.
2. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent.: Fan, 2005.
3. Sanaqulov X.R, Xodiyeva D.P. Satbayeva “Mehnat va uni o’qitish metodikasi”. Darslik. – T.: TDPU.2015-yil.
4. Matchonov S. Bolalar adabiyotidan saboqlar. –Toshkent, Mahalla va oila, 2022.

Qo’shimcha adabiyotlar

5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son.
6. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent. 2002.
7. Azizova N.K. “Alifbe” darsligi. – T.: “Novda edutainment” nashriyoti. 2023.
8. Repyova I.V. 1-sinf “Matematika” darsligi. – T.: “Novda edutainment” nashriyoti. 2023.
9. Azizova N.Q., Umbarova V.Y. 1-sinf “Yozuv” daftari. – T.: “Novda edutainment” nashriyoti. 2023.
10. Usmanova O.V., Ribyukova Y.V. 1-sinf “Tarbiya” darsligi. – T.: “Novda edutainment” nashriyoti. 2023.
11. Aydarova U.B. 2-sinf “O‘qish savodxonligi”. – T.: “Novda edutainment” nashriyoti. 2023.
12. Repyova I.V. 2-sinf “Matematika” darsligi. – T.: “Novda edutainment” nashriyoti. 2023.
13. Kuranov S. 2-sinf “Ona tili” darsligi. – T.: “Novda edutainment” nashriyoti. 2023.
14. Repyova I.V. 3-sinf “Matematika” darsligi. – T.: “Novda edutainment” nashriyoti. 2023.
15. Baynazarova D. 3-sinf “Ona tili” darsligi. – T.: “Novda edutainment” nashriyoti. 2023.
16. Malikova Y.V. 3-sinf tabiiy fanlar. – T.: “Novda edutainment” nashriyoti. 2023.
17. Repyova I.V. 4-sinf “Matematika” darsligi. – T.: “Novda edutainment” nashriyoti. 2023.
18. Sanaqulov X. Mehnat ta’limi. 1-sinf. – T., “Sharq”, 2010-yil.
19. Sanaqulov X. va boshq. Mehnat ta’limi. 3-sinf ushun. – T., “O‘qituvchi”, 2008.

Internet saytlari

1. www.ziynet.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.cspi.uz
4. www.edu.uz

5. www.tdpu.uz